

## SUV XO'JALIGI TIZIMIDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

**Djumanazarova A.T**

**Perdebaeva K**

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

O'zbekiston. Nukus shaxri. E-mail: altingul64@mail.ru


E-mail: ftga\_info@edu.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son Farmoniga asosan 2020 – 2030 yillarda foydalanishga kiritiladigan jami 1111723 hektar yer maydonlarida irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish belgilangan, xususan, orqali qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan 298 563 hektar sug'oriladigan yerkarni 2019–2024 yillarda foydalanishga kiritish mo'ljallangan.

Bu borada ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda 2019 yilda 40 000 hektar maydonni qayta foydalanishga kiritish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 48 041 hektar maydon foydalanishga qaytarildi.

2020 yilda jami 76 551 hektar yer maydonini qayta foydalanishga kiritish maqsadida irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini, nasos stantsiyalari va agregatlarni rekonstruksiya qilish hamda yangidan qurish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoxqda.


### 2019-2024 yillarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari natijasida foydalanishga kiritiladigan yerlar



1-rasm. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari natijasida foydalanishga kiritiladigan yerlar.

Sug'oriladigan maydonlarda tuzlar balansi: 2019 yilda sug'orishga ishlatalilgan suvlar bilan jami 42134,2 tonna tuzlar kirib kelgan bo'lsa, kollektor-


drenaj tarmoqlari orqali umumiylis hisobda 52278,7 tonna tuzlar chiqib ketishiga erishildi.



2-rasm. Kollektor drenajlar orqali chiqib ketgan va sug'orish tarmoqlari orqali kirib kelgan tuzlar

Respublikamizda sug'oriladigan 4,3 mln. hektar maydonning 46 foizi turli darajada sho'rangan bo'lib, suv-tuz balansini yuritish mexanizmini takomillashtirish, yer osti sizot suvlarini me'yorda ushlab turish, melioratsiya ishlaringning samaradorligini oshirish orqali 2019 yilda 303 ming hektar maydonning meliorativ holati yaxshilanishiga erishilib, sho'rangan maydonning ulushi 45,7 foizga kamaytirildi.

2020 yilda sug'oriladigan maydonlarga nisbatan sho'rangan maydonlarning ulushini 45 foizga kamaytirish rejalashtirilgan, 2030 yilgacha esa yiliga 1 – 1,5 foizga kamaytirib boriladi.



**3-rasm. Sho'rangan maydonlar ulushini kamayish dinamikasi**

Suv xo'jaligi vazirligining 2019 yil 1 noyabrdagi 230-sod buyrug'iiga asosan, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini nazorat qilish hamda

hisobotini yuritish tizimini takomillashtirish maqsadida, BMT Taraqqiyot dasturi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyalarda geoaxborot texnologiyalari bilan jihozlangan monitoring markazlari tashkil qilindi.

Monitoring markazlari zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturlari yordamida viloyat, tuman va fermer xo'jaliklari kesimida:

- sho'rланish xaritasi;
- yer osti sizot suvlaringin joylashuv xaritasi;
- yer osti sizot suvlaringin minerallashuvi xaritasi;
- meliorativ kadastr ma'lumotlarini tayyorlab beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasiya yer osti sizot suvlarini nazorat qilib borish maqsadida 350 ta kuzatuv quduqlariga onlayn kuzatish uskunasi o'rnataligan.

Ushbu uskuna yordamida yer osti sizot suvleri sathi, sho'rланishi, harorati aniqlanib, ma'lumotlar Qoraqalpog'iston suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiyaning monitoring markaziga onlayn tarzda uzatilmoqda.

2030 yilgacha respublikamizdagi barcha kuzatuv quduqlari onlayn kuzatish uskunalari bilan ta'minlanishi rejalashtirilgan.

Suv xo'jaligi tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish bo'yicha quyidagi vazifalar bajarilishi kerak:

- suv sarfini hisobga olishda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish bilan birgalikda suv resurslarining aniq hisob-kitobini yuritish va olinayotgan suvning aniq miqdorini yashirish holatlariga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash;
- suv xo'jaligi xodimlari tomonidan suv oldi-berdi munosabatlarda shartnama rasmiylashtirgan holda talabnama asosida suv yetkazib berilishini ta'minlash;
- manzilli ro'yxatlarni ishlab chiqish va tegishli vazirliklar bilan kelishish uchun idoralalararo yagona axborot tizimini yaratish;
- loyiha-qidiruv ishlari manzilli ro'yxatiga kiritiladigan irrigatsiya-melioratsiya ob'ektlarining ro'yxatini shakllantirishning shaffof mexanizmini ishlab chiqish;
- sug'oriladigan yerkarning meliorativ holatini baholash maqsadida kuzatuv quduqlarini kapital ta'mirlash va real vaqtda yuqori aniqlikda sizot suvleri sathini, harorati hamda sho'rланish darajasini avtomatik tarzda onlayn kuzatib borish;
- nasos stantsiyalarda sarflanayotgan elektr energiya hisobini va ta'mirlash ishlarini nazorat qilishning yagona elektron tizimini joriy qilish;

- vazirlik tizimida ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va ozod etish masalalarini takomillashtirish;
- tizim tashkilotlari hisobidagi mashina-mexanizmlar va avtotransport vositalaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida ularning ishini onlayn tarzda masofadan nazorat qiluvchi (GPS) qurilmalari orqali kuzatishni tashkil etish;
- tizim tashkilotlarida byudjet mablag'larini boshqarish bo'yicha (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, tovar-moddiy boyliklari, ish, xizmat va boshqalar) amalga oshirilayotgan moliyaviy pul oqimi harakatlarini vazirlik tomonidan onlayn tarzda elektron kuzatib borish mexanizmini joriy qilish;
- suv xo'jaligi sohasida barcha ko'rsatkichlarini (irrigatsiya, melioratsiya, kadrlar hisobi, investitsiyalar va ularning o'zlashtirilishi, xarajatlar smetasi va ulardan maqsadli foydalanilishi) hamda ularning bajarilishini nazorat qiluvchi yagona kompleks ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va h.k.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak suv xo'jaligi tizimidagi tashkilotlar balansidagi barcha kollektor, kanallar hamda suv omborlarining muhofaza zonasidan samarali foydalanish bo'yicha aniq vazifalar belgilanishi va raqamli texnologiyalarni qo'llash lozim. Bu esa irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish, balansdan chiqib ketgan ekin maydonlarini qayta foydalanishga kiritish imkononi beradi.

### **ADABIYOTLAR:**

1.Djaksymuratov K.,Dzhumanazarova A., Kurbaniyazova B. Changes in the regime and use of fresh groundwater in the Southern Aral Sea region. Solid State Technology, Vol. 63 №6 (2020). subscription@solidstatetechnology.us.,  
<http://solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/7188>

2. Джуманазарова А.Т. Джаксымуратов К., **Бекмуратов А.**, Алланазаров Б., Отепов П. Использования пресных подземных вод Кегейлийского месторождения. Международный журнал. "Экономика и социум" №12(91) 2021 <https://www.iupr.ru/> стр 975-981. <https://readera.org/ispolzovanie-presnyh-podzemnyh-vod-mestorozhdenija-kegejli-140262530>

3. Djumanazarova, A. T., Tolepova, Sh. B., & Jumatova, R. M. (2022). PROBLEMI KACHESTVA OROSITELNIX VOD. Science and innovation, 1(D3), 263-267.

4. Isaev, S., Gofirov, A., Tadjiyev, S., Bulanbayeva, P., & Djumanazarova, A. (2023). Effects of different salinity levels in topsoil on the growth,

development and yield of winter wheat. In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 04004). EDP Sciences.

5. Isaev, S., Sarimsakov, M., Sarimsakova, M., Turdaliev, A., Abdukhakimova, K., & Mirzaeva, M. (2023). Application of water-saving irrigation technologies of intensive apple orchards in the irrigated regions of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 389, p. 03052). EDP Sciences.

6. Saparov, A. B., Khidirov, S. K., Khalimbetov, A. B., Djumanazarova, A. T., Tolepova, S. B., & Seitmuratov, A. R. (2023). Methods of channel calculations to improve the operational mode of main canals. In E3S Web of Conferences (Vol. 410, p. 05035). EDP Sciences.